



## QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATI TAHLILINI AXBOROT BILAN TA'MINLASH

**Xakimov Tulkin**

*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti*

*ORCID: 0000-0001-7280-9981*

*[akash7509@rambler.ru](mailto:akash7509@rambler.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda axborot bilan ta'minlashning ahamiyati yoritilgan. Muallif axborot texnologiyalari va statistik ma'lumotlarning iqtisodiy tahlildagi o'rni, qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyatini samarali rejalashtirishdagi roli haqida fikr yuritadi. Maqolada iqtisodiy salohiyatni aniqlashda axborot resurslaridan foydalanish usullari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy salohiyat, qishloq xo'jaligi, axborot ta'minoti, tahlil, axborot texnologiyalari, korxonalar samaradorligi, rejalashtirish, statistik ma'lumotlar, menejment, raqamli transformatsiya.

## ИНФОРМАЦИОННОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ АНАЛИЗА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

**Хакимов Тулкин**

*Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение информационного обеспечения в анализе экономического потенциала сельскохозяйственных предприятий. Автор подчеркивает роль информационных технологий и статистических данных в проведении экономического анализа, а также их значение в эффективном планировании деятельности аграрных предприятий. В статье анализируются методы использования информационных ресурсов для оценки экономического потенциала, существующие проблемы и пути их решения.

**Ключевые слова:** экономический потенциал, сельское хозяйство, информационное обеспечение, анализ, информационные технологии, эффективность предприятий, планирование, статистические данные, управление, цифровая трансформация.

## INFORMATION SUPPORT FOR THE ANALYSIS OF THE ECONOMIC POTENTIAL OF AGRICULTURAL ENTERPRISES

**Khakimov Tulkin**

*Tashkent Institute of Textile and Light Industry*

**Abstract.** *This article explores the importance of information support in analyzing the economic potential of agricultural enterprises. The author emphasizes the role of information technologies and statistical data in economic analysis, as well as their significance in effective planning of agricultural operations. The paper analyzes methods of utilizing information resources to assess economic potential, identifies current challenges, and suggests possible solutions.*

**Keywords:** *economic potential, agriculture, information support, analysis, information technologies, enterprise efficiency, planning, statistical data, management, digital transformation.*

### **Kirish.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi tarmog'i mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini to'g'ri baholash va tahlil qilish ularga to'g'ri strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bunday tahlillar samarador bo'lishi uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan, ayniqsa raqamli axborot tizimlaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida raqamlashtirish jarayonlari jadallashdi, bu esa axborot bilan ta'minot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy kabi davlatlarda "raqamli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan agroaxborot tizimlari fermer xo'jaliklarining rentabelligini oshirishga, resurslardan samarali foydalanishga va moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ham agrar sohani modernizatsiya qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish va statistik hamda operativ ma'lumotlar asosida tahliliy qarorlar qabul qilish borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashda axborot bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, mavjud axborot resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur maqolada aynan shu masalaga — ya'ni iqtisodiy salohiyat tahlilini axborot bilan ta'minlashning metodologik asoslari, amaliy ahamiyati, mavjud muammolari va ularning yechimlariga e'tibor qaratiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish va baholash masalalari ko'plab milliy va xalqaro olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xalqaro tajribada bu yo'nalishda innovatsion boshqaruv usullari, raqamlashtirish va resurslarni samarali taqsimlash kabi jihatlar asosiy e'tiborga olinadi. Xususan, Rossiyalik mutaxassis Ekimov "qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini chuqur tahlil qilgan va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish yo'llarini taklif qilgan" (Ekimov,2021). Yana bir rossiyalik mutaxassis Zinina "qishloq xo'jaligi korxonalarining tadbirkorlik salohiyatini oshirish orqali iqtisodiy salohiyatni mustahkamlash yo'llarini o'rgangan" (Zinina,2020). Ukrainalik mutaxassis Antohenkova "qishloq xo'jaligi korxonalarining resurs salohiyatidan samarali foydalanish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq hududlarini rivojlantirish" masalalariga o'z tadqiqotlari to'xtalib o'tgan (Antoshchenkova, 2020). Polshalik mutaxassis Matyja "qishloq xo'jaligi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning resurs bazasi va

salohiyatini oshirish masalalarini” o‘z ilmiy ishlarida keng yoritgan (Matyja,2016). Belorussiyalik iqtisodchi Samaxavets “qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy salohiyatini yaxshilash yo‘llarini” o‘z tadqiqotlarida ochiqlab o‘tgan (Samaxavets, 2014). Yana bir rossiyalik mutaxassis Podkopaev o‘z tadqiqotlarida asosan “qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish masalalariga to‘xtalib o‘tgan”(Podkopayev, 2016). O‘zbekiston sharoitida esa, qishloq xo‘jaligi sohasining rivojlanishi va korxonalar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar so‘nggi yillarda faollashdi. I. Umarov o‘z tadqiqotlarida “qishloq xo‘jaligi korxonalarining boshqaruv salohiyatini yaxshilash masalalariga” to‘xtalib o‘tgan (Umarov, 2018). Shoniyozova “qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy salohiyatini oshirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati” haqida o‘z izlanishlarida xulosalar berib o‘tgan (Shoniyozova, 2023). Nosirova “qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatuvchi kichik biznes korxonalarining eksport salohiyatini oshirish masalalariga” o‘z ilmiy asarlarida to‘xtalib o‘tgan (Nosirova, 2021). Yuqorida o‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini o‘rganishga qaratilgan ishlarda yaxlit baholash va tahlil qilish tizimi shakllantirilmagan, shuningdek, iqtisodiy salohiyatni baholash metodikalari bo‘yicha mamlakatimizda hali yetarlicha tizimli yondashuvlar ishlab chiqilmaganligi haqida fikrlar mavjud. Shu bois, iqtisodiy salohiyatni aniq baholash va uni boshqarish uchun zamonaviy uslubiy asoslar yaratish dolzarb hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda korxonaning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va baholashda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Tizimli tahlil usuli asosida korxonaning iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar aniqlab olindi. Taqqoslash usuli orqali turli korxonalar faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlari solishtirildi va baholashning nisbiy natijalari tahlil qilindi. Statistik tahlil, moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili, grafik va jadval usullari yordamida korxonaning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi, aktivlardan foydalanish darajasi va boshqa muhim parametrlar baholandi. Tadqiqotda shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik manbalar asos sifatida qo‘llanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Iqtisodiy salohiyat qishloq xo‘jaligi korxonasining mavjud resurslari, imkoniyatlari va ishlab chiqarishni tashkil etish shart-sharoitlarining jamlanmasidir. Mazkur salohiyat korxonaning mahsulot ishlab chiqarish quvvatlaridan eng yuqori samara bilan foydalanishni ko‘zda tutadi. Iqtisodiy salohiyatni aniq baholash va tahlil qilish uchun “yuqori sifatli, kompleks va tizimli ma‘lumotlar bazasi” talab etiladi (Kuryanov,2019).

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini chuqur va ishonchli tahlil qilishda turli xil ma‘lumotlar manbai asos bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar, jumladan buxgalteriya balansi, daromad va xarajatlar to‘g‘risidagi hisobotlar, pul oqimlari va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish faoliyatiga oid statistik ma‘lumotlar — ekin maydonlari hajmi, dehqonchilik va chorvachilik natijalari, hosildorlik ko‘rsatkichlari, shuningdek, texnik vositalarning texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.


Mehnat resurslari statistikasi, xususan xodimlar soni, ularning kasbiy malakasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtidan foydalanish darajasi mehnat salohiyatini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, material-texnik ta‘minot holati — ya‘ni urug‘, o‘g‘it, kimyoviy moddalar, yoqilg‘i-moylash materiallari va ularning zahirasi hamda taqsimlanish holati — ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Bozor sharoitlari va savdo faoliyatiga doir axborotlar, jumladan mahsulot narxlarining o'zgarish tendensiyalari, xarid va sotuv statistikasi, tuzilgan shartnomalar hamda raqobat muhiti tahlili korxonaning tashqi iqtisodiy imkoniyatlarini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, iqlim va tabiiy resurslarga oid ma'lumotlar, xususan ob-havo sharoitlari, tuproq va suv resurslarining holati, geokologik omillar ham tahlil jarayonida inobatga olinishi lozim, chunki ular ishlab chiqarish natijalariga bevosita ta'sir etadi.

Nihoyat, zamonaviy texnologik innovatsiyalar va raqamlashtirish darajasi — agrotexnologik yangiliklar, avtomatlashtirish jarayonlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish holati — korxonalarining raqobatbardoshligi va iqtisodiy o'sish istiqbollari belgilashda muhim mezonlar hisoblanadi.

Mavjud salohiyat va tashqi muhit tahlili asosida strategik rejalar, iqtisodiy va texnologik jihatdan barqaror rivojlanish istiqbollari belgilanadi.



1-rasm. Qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish axborot bazasi

Qishloq xo'jaligi korxonasining iqtisodiy salohiyatini to'liq va obyektiv baholash korxonaning faoliyatini maqbullashtirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu esa yuqorida tilga olib o'tilgan keng qamrovli ma'lumotlar bazasi va bosqichma-bosqich tahlil jarayonlari orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tahlilning mazmundorligi, uning chuqurligi hamda qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarning to'liq inobatga olinishi, o'z navbatida, axborot ta'minotining darajasiga bog'liqdir. "Iqtisodiy salohiyat tahlilining axborot ta'minoti tizimini yaratish — bu axborot bazasini shakllantirishni talab qiladi"(Salnikov,2018). Iqtisodiy salohiyat tahlili vazifalari va uni baholash uchun tavsiya etilgan tahliliy ko'rsatkichlar asosida, tadqiqot ishida qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishning axborot bazasi tuzilmasi taklif etiladi (1-rasm).

Qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish jarayonida axborot bazasidan to'g'ri va maqsadli foydalanish ma'muriy boshqaruv apparatining malakalilik darajasiga bevosita bog'liqdir". Boshqaruv xodimlarining kompetentlik darajasining yuqoriligi axborotlarni aniq talqin etish, tahlil qilish va undan qaror qabul qilishda samarali foydalanish imkonini beradi. Bu esa "boshqaruv qarorlarining sifatli va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi" (Nasibov,2008).

Normativ-huquqiy hujjatlar qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyat yuritish shart-sharoitlarini belgilab beradi. Ushbu hujjatlarda belgilangan mezonlar va me'yoriy chegaralarning buzilishi moliyaviy jihatdan korxonada faoliyatida salbiy aks etgani holda, korxonaning iqtisodiy barqarorligi va salohiyatining pasayishiga olib keladi.

Shuningdek, "qishloq xo'jaligi korxonalarida axborot bazasini boshqarish hamda tahlil qilishda boshqaruv samaradorligi va huquqiy bilimlarning yuqori darajada bo'lishi iqtisodiy salohiyatni to'liq va aniq baholash, shuningdek, samarali boshqaruv qarorlari qabul qilishning muhim sharti sanaladi".

"Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy faoliyatida tashqi marketing muhiti va bozor sharoitiga oid ma'lumotlar" muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ma'lumotlar, iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza ma'lumotlarini to'ldirgan holda, amaldagi bozor munosabatlarining muayyan "o'yin qoidalari"ni shakllantiradi.

Bu qoidalarga rioya qilish, shu bilan birga, ulardan oqilona va strategik foydalanish qishloq xo'jaligi korxonalariga bir qator ustunliklarni taqdim etadi. Jumladan: bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash, operatsion faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatini yaratish, kelgusidagi rivojlanish istiqbollari belgilash. Shu tarzda, tashqi marketing va bozor muhitiga oid ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish va ularni boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining raqobatdoshligini oshirish va uning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

"Sohaga oid statistik ma'lumotlar qishloq xo'jaligi korxonasining umumiy iqtisodiy salohiyati hamda uning tarkibiy qismlarini solishtirma tahlil qilish imkonini yaratadi" (Yusov,2013). Bu turdagi tahlillar: korxonaning mol-mulk tarkibi va tuzilmasining maqbullik darajasini baholash, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish, qishloq xo'jaligi biznesining rentabellik darajasini aniqlash, strategik rivojlanish imkoniyatlarini baholash kabilarga oydinlik kiritishga xizmat qiladi.

Shu kabi tahlillar orqali korxonaning mavjud resurslardan qanchalik samarali foydalanayotganligi hamda unda qanday ichki imkoniyatlar borligi aniqlanadi. Ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatni baholashdagi tahliliy jarayonlarni amalga oshirish uchun asosiy axborot manbai sifatida, birinchi navbatda, "buxgalteriya hisobi va operatsion hisob-kitob tizimida shakllantiriladigan ma'lumotlar" xizmat qiladi. Bu tizimlar korxonaning faoliyati haqidagi aniq va ishonchli iqtisodiy ma'lumotlarni taqdim etib, tahlil jarayonining ilmiy asosda va aniq bo'lishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish salohiyatini baholashda qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Bu tahlilning asosiy maqsadi — yer resurslari, biologik aktivlar va moddiy-texnik baza samaradorligini aniqlash hamda ulardan optimal darajada foydalanish imkoniyatlarini baholashdir.

Ishlab chiqarish salohiyatini o'rganish jarayonida yer maydonlari, biologik aktivlar va korxonalarining moddiy-texnik bazasi kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish salohiyatini baholashda mahsuldorlik ko'rsatkichlari (yer maydoni yoki boshqa resurs birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi), fond qaytimi (asosiy vositalar qiymatiga nisbatan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori), fond sig'imi (mahsulot birligiga sarflangan asosiy vositalar qiymati), hamda fondlar rentabelligi (asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining iqtisodiy ko'rinishi) kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Tahlil jarayonida avvalo hisoblangan ko'rsatkichlar asosida yer maydonlari hamda mashina va texnikalardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi, so'ngra ushbu omillarning



umumiy natijaga ta'siri aniqlanadi. Bu esa "ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish" va samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish salohiyatini aniq va ilmiy asosda baholash qishloq xo'jaligi korxonalarida resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, shuningdek iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish istiqbollari mustahkamlaydi.

Aylanma kapital tahlili jarayonida ishlab chiqarish zaxiralari miqdori va ularning maqbul chegarasi aniqlanadi, shuningdek, xomashyo resurslari bilan ta'minlanish darajasi baholanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va sotish faoliyatining samaradorligi tahlil qilinadi. Mahsulot birligiga ketgan xomashyo va materiallar iste'moli ko'rsatkichlari hisoblab chiqilib, ularning ishlab chiqarish hajmi va sotuvlarga ta'siri ilmiy usullar yordamida o'rganiladi.

Mehnat salohiyatining tahlili kadrlar bo'limidan olingan ma'lumotlarga asoslanib, xodimlar soni, yoshi, ta'lim darajasi va kasbiy malakalarini o'z ichiga oladi. Mehnat resurslarining sifati va miqdori korxonada resurslarini samarali ishlatish va iqtisodiy natijalar uchun muhim omil sanaladi.

Korxonada mehnat resurslaridan foydalanishni tahlil qilish mehnat salohiyatining holatini to'liq va tizimli baholashni talab qiladi. Bu jarayonda kadrlarning barqarorligi, kadrlar siyosatining samaradorligi, mehnat unumdorligi, ish haqi qaytimi hamda mehnat va ish haqi sig'imi kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

Mehnat salohiyatini aniq va to'g'ri baholash inson resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Mehnat salohiyatini tahlil qilishda muhim qadamlardan biri — mehnat jamoasi va uning bo'limlari faoliyatida motivatsiya hamda rag'batlantirish tizimining samaradorligini baholashdir. Ushbu tahlil ishchilarning ishga munosabati, mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar va rag'batlantirish mexanizmlarining ta'sir darajasini aniqlashga yordam beradi.

To'g'ri tashkil etilgan motivatsiya tizimi xodimlarning faoliyatini oshiradi, kadrlarning barqarorligini ta'minlaydi va umumiy mehnat samaradorligini yaxshilaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini haqqoniy va aniq baholash uchun ishonchli va tizimlashtirilgan axborot zarur. Bu axborotning asosiy manbai sifatida buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlari xizmat qiladi. Ushbu hisobotlar qonunchilik talablariga muvofiq tayyorlanib, korxonaning moliyaviy holati, mulk holati, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

#### **Buxgalteriya hisobotining tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:**

1. **Buxgalteriya balansi** – korxonaning ma'lum bir sanadagi aktiv va passivlarini, moddiy va moliyaviy resurslar tarkibi hamda manbalarini ko'rsatadi. U aktivlarning tuzilishi va faoliyatning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishga xizmat qiladi.

2. **Foyda va zararlar to'g'risida hisobot** – hisobot davrida olingan daromadlar, qilingan xarajatlar va sof foydani ko'rsatib, rentabellik darajasini aniqlashga imkoniyat beradi.

3. **Pul mablag'larining harakati to'g'risida hisobot** – mablag'lar tushumi va sarflanishi dinamikasini tahlil qilish orqali likvidlik va to'lov qobiliyati baholanadi.

4. **Kapital o'zgarishi to'g'risida hisobot** – korxonaning o'z kapitalidagi o'zgarishlar, ya'ni ustav fondi, rezervlar va taqsimlangan foyda haqida ma'lumot beradi.

Buxgalteriya hisoboti qishloq xo'jaligi korxonalarining: "moliyaviy barqarorligi" (Abdujabborova,2023); "rentabellik va to'lov qobiliyati" (Eshov,2020); "resurslardan foydalanish samaradorligi" (Tashmatov,2017); ichki zaxiralar va iqtisodiy salohiyatni aniqlashni ta'minlaydi. Bundan tashqari, ushbu ma'lumotlar asosida strategik rejalashtirish, investitsion qarorlar qabul qilish va tashqi manfaatdor tomonlar (investorlar, banklar, davlat tashkilotlari) uchun hisobotlar tayyorlash imkoni paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 13.04.2016 yildagi O'RQ-404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida "Buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd

etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iborat” ekanligi qayd etilgan (O’RQ,2016). Shu bilan bir qatorda, mazkur qonunning 22-moddasida “moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi subyektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag’larining harakati to’g’risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iborat” ligi ko’rsatib o’tilgan. Amaldagi qonunchilikka ko’ra, buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari, shu jumladan kichik tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi.

O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 12.07.2024 yildagi “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asosni tasdiqlash haqida”gi buyrug’i bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun Kontseptual asos”da “moliyaviy hisobotning maqsadi tashkilotning hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi uning faoliyatini moliyaviy natijasi va pul mablag’larining harakati to’g’risidagi ma’lumotni taqdim etish” ekanligi belgilab berilgan.

### 1-jadval

#### Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotning asosiy afzalliklari va tahliliy imkoniyatlari

No	Afzalliklar	Tahliliy imkoniyatlar
1	<b>Tizimlilik va davriylik</b>	Buxgalteriya hisobotlari belgilangan vaqt oralig’ida tayyorlanadi, bu esa ma’lumotlarni dinamik tahlil qilish, tendentsiyalar va o’zgarishlar yo’nalishini aniqlash imkonini beradi.
2	<b>Hujjatli asoslanganlik va ishonchilik</b>	Har bir moliyaviy operatsiya hujjat bilan tasdiqlanadi, bu esa ma’lumotlarning aniqligi va yuridik kuchga egaligini ta’minlaydi.
3	<b>Solishtirma tahlil imkoniyati</b>	Hisobot ma’lumotlari sohaviy o’rtacha ko’rsatkichlar, o’xshash faoliyat yurituvchi raqobatchilar bilan taqqoslanib, korxonaning pozitsiyasi va raqobatbardoshlik darajasini baholash imkonini beradi.
4	<b>Ichki resurslar tahlili va samaradorlikni baholash</b>	Balans, foyda va zararlar hisoboti, pul mablag’lari harakati kabi shakllar orqali aktivlar, ishlab chiqarish vositalari, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi.
5	<b>Iqtisodiy salohiyat tarkibiy qismlarining o’zaro bog’liqligini aniqlash</b>	Buxgalteriya ma’lumotlari orqali ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar, foyda va rentabellik darajasi o’rtasidagi bog’liqliklar o’rganiladi. Bu esa korxonaning salohiyatini rivojlantirish bo’yicha maqsadli qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 06.08.2024 yildagi “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati”ni tasdiqlash haqida” buyrug’i bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS)da yillik moliyaviy hisobotlar to’plami buxgalteriya balansi; moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot; xususiy kapital to’g’risidagi hisobot; pul oqimlari to’g’risidagi hisobot; moliyaviy hisobotlarga izohlardan iborat bo’lishi, shu bilan bir qatorda, moliyaviy hisobot a) foydalanuvchilar ehtiyoji uchun ahamiyatli; b) ishonchli bo’lishi, shu jumladan: tashkilot moliyaviy holati va faoliyatining barcha natijalarini xolisona ko’rsatishi; faqat yuridik shakldan iborat bo’lmay, hodisa va operatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini aks ettirishi; betaraf (beg’araz) bo’lishi va majburiy bo’lmasligi; betaraflikka zarar yetkazmagan holda ehtiyotkor bo’lishi; barcha muhim jihatlari to’la (tugallangan) bo’lishi, ya’ni tashkilot xo’jalik faoliyatining barcha faktlarini to’la aks ettirishi; v) faoliyati o’xshash boshqa tashkilotlar moliyaviy hisoboti bilan taqqoslanadigan bo’lishi; g) tushunarli bo’lishi” o’z aksini topgan.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida maxsus hisobot shakllari xo'jalik jarayonlari, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat resurslaridan foydalanish, mahsulot turlari bo'yicha sotish va moliyaviy natijalar to'g'risida keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Bundan tashqari, hisobotlarda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq yuki, biologik aktivlar holati va xarajatlar tarkibi kabi muhim sohalar ham qamrab olinadi. Ushbu ma'lumotlar tahlil, boshqaruv va rejalashtirish qarorlarini asoslashda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Iqtisodiy salohiyatni xolis va samarali baholash uchun korxonaning real faoliyatini aks ettiruvchi, ishonchli moliyaviy ma'lumotlar zarur. Bu maqsadda **yillik buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti** asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Uning tahliliy qiymati nafaqat hisobotda aks etgan ma'lumotlarning to'liqligi va tizimliliigi, balki tahlil, taqqoslash va prognozlash imkoniyatlarini yaratishi bilan ham belgilanadi. Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotning asosiy afzalliklari va tahliliy imkoniyatlarini 1- jadvalda yaqqol ko'rishimiz mumkin. "Yillik buxgalteriya hisoboti — qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy faoliyatini chuqur tahlil qilish, ichki va tashqi muhitdagi holatni solishtirma baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va strategik rejalashtirish uchun asosiy axborot manbai" hisoblanadi.

### Xulosa va takliflar.

Iqtisodiy salohiyatni to'liq va aniq baholash maqsadida quyidagi asosiy bosqichlar taklif etiladi:

1. **Axborot bazasini to'plash va tizimlashtirish.** Korxonaning moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, marketing va tabiiy resurslar bo'yicha ma'lumotlari yig'ilib, ular tizimlashtiriladi.

2. **Resurslar salohiyatini baholash.** Yer maydonlari, moddiy-texnik baza, mehnat resurslari va moliyaviy resurslar holati va sifat ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

3. **Ishlab chiqarish salohiyatini tahlil qilish.** Asosiy ishlab chiqarish vositalari samaradorligi, mahsuldorlik, texnologik daraja va ishlab chiqarish jarayonlari tahlil qilinadi.

4. **Moliyaviy holat va iqtisodiy barqarorlikni baholash.** Korxonaning rentabelligi, likvidligi, qarzdorlik darajasi va moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

5. **Ichki zaxiralar va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash.** Samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash va yangi investitsiyalar kiritish uchun ichki zaxiralar va zaxiralarni aniqlash.

6. **Risklar va imkoniyatlarni baholash, prognozashtirish va rejalashtirish.** Moliyaviy, iqtisodiy va tashqi xatarlarni hisobga olgan holda rivojlanish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va baholash — bu murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi tadqiqotchi va amaliyotchi uchun korxonaning strategik ustuvorliklarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak tahlilning asosiy vazifasi — "korxonaning ichki va tashqi muhitini kompleks ravishda o'rganish, resurslardan samarali foydalanish darajasini baholash va iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini belgilashdan iborat".

Birinchi bosqichda axborot bazasini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Bu bosqichda korxonaning faoliyatiga oid emoliyaviy, texnik, ishchi kuchi va marketing ma'lumotlari yig'ilib, tahlilning maqsad va vazifalari aniqlanadi". Ushbu bosqich tahlil jarayonining ilmiy asosini yaratib, keyingi bosqichlarda qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni ta'minlaydi.

Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish salohiyatini tahlil qilish orqali yer resurslari, biologik aktivlar, texnika va mehnat resurslarining holati, ularning samaradorligi va integratsiya darajasi o'rganiladi. Bu yerda resurslardan noo'rin foydalanish yoki boshqaruvning samarasizligi ishlab chiqarish potentsialiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlanadi. Shuningdek, biologik potentsialning o'zgaruvchanligi va unga bog'liq xatarlar hisobga olinadi.



Uchinchi bosqich — moliyaviy salohiyatni baholash. Bu bosqichda korxonaning moliyaviy barqarorligi, kapital oqimlari, daromaddorligi va investitsiya imkoniyatlari tahlil qilinadi. Moliyaviy tahlil “boshqaruvning strategiya va qarorlarini moliyaviy jihatdan asoslashda” muhim rol o‘ynaydi hamda iqtisodiy salohiyatning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

To‘rtinchi bosqichda boshqaruv va bozor salohiyati tahlili amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda korxonaning strategik boshqaruv qobiliyati, raqobatbardoshligi, marketing faoliyati va bozordagi pozitsiyasi tahlil etiladi. Boshqaruvning sifatli tizimi va moliyaviy boshqaruv vositalari (operatsion, moliyaviy ro‘chaglar, kapital qiymati va h.k.) korxonaning bozordagi mustahkam o‘rnini ta‘minlaydi.

Beshinchi bosqich esa “integral baholash” dan iborat bo‘lib, u yerda oldingi bosqichlardagi tahlil natijalari umumlashtiriladi, korxonaning iqtisodiy salohiyatining murakkab ko‘rsatkichlari aniqlanadi, tahlildagi kamchiliklar va imkoniyatlar bayon qilinadi hamda rivojlanish strategiyalari ishlab chiqiladi. Bu bosqichda ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlanadi, ular korxonaning barqaror va samarali faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan.

Shu tariqa, qishloq xo‘jaligi korxonalari iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishning bosqichli va tizimli yondashuvi resurslarni kompleks baholash va boshqaruv jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga yordam beradi. Bu esa korxonaning iqtisodiy barqarorligi, raqobatbardoshligini oshirish va ijobiy strategik rivojlanishini ta‘minlashda muhim ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

*Antoshchenkova V. (2020) Main elements of the resource potential of agricultural enterprises as the basis of economic and food security //Ekonomichnyy analiz. – T. 30. – №. 3. – С. 291-298.*

*Matyja M. (2016) Resources based factors of competitiveness of agricultural enterprises //Management. – T. 20. – №. 1. – С. 368.*

*Samakhavets M. P. (2024) Financial Potential of Agricultural Business of the Republic of Belarus in Trade with the Russian Federation //Regionalnaya ekonomika. Yug Rossii. – С. 103-114.*

*Skrynkovskyy R. et al. (2019) Improvement of the system of indicators for the efficiency evaluation of the production capacity of industrial enterprises //Технологический аудит и резервы производства. – Т. 2. – №. 4 (46). – С. 49-51.*

*Viacheslavna Z. O., Anatolievna O. J. (2020) Business activity of agricultural enterprises. Problems and solutions //Азимут научных исследований: экономика и управление. – Т. 9. – №. 4 (33). – С. 151-153.*

*Yekimov S. et al. (2021) Building the potential of an agricultural enterprise //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing. – Т. 677. – №. 2. – С. 022075.*

*Абдувохидов, Акмал, et al. (2022) "Қишлоқ хўжалигида иқтисодий ўсиш сифатини аниқлаш ва унинг кўрсаткичлари таҳлили." Iqtisodiyot va ta'lim 23.4: 16-31.*

*Абдужаборова М. (2023) Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий барқарорлик таҳлилинини ташкил этиш //Iqtisodiyot va ta'lim. – Т. 24. – №. 5. – С. 197-200.*

*Абдумуротов Ш. (2021) Корхоналарни ривожлантиришда корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлилининг ўрни //Экономика и инновационные технологии. – №. 3. – С. 42-48.*

*Бочаров В. П., Круглов А. А. (2010) Организационные аспекты экономического анализа производственного потенциала //Современная экономика: проблемы и решения. – Т. 10. – С. 73-82.*

*Жалилов Б. (2019) Корхоналар иқтисодий фаолиятини самарали ташкил этишнинг муаммолари ва тизимли таҳлили //Экономика и инновационные технологии. – №. 3. – С. 183-191.*

*Кочарян Я. М. (2016) Методическое обеспечение экономического анализа в*

агрохолдингах //Кластерные инициативы в формировании прогрессивной структуры национальной экономики. – С. 140-143.

Курьянов А. В., Дубовик А. С., Варганова С. Е. (2019) Оценка производственного потенциала предприятий АПК //Наука и образование. – Т. 2. – №. 2.

Миркомиллов М. (2022) Саноат корхоналарининг ишлаб чиқариш салоҳиятидан самарали фойдаланишининг асосий жиҳатлари: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss3/a44](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a44) //Iqtisodiyot va ta'lim. – Т. 23. – №. 3. – С. 285-290.

Насибов З. Н. (2008) Анализ производственного потенциала АПК //Проблемы экономики и юридической практики. – №. 4. – С. 272-274.

Носирова Н. (2021) Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ошириш //Iqtisodiyot va ta'lim. №. 5. С. 309-315.

Нурманов К. (2024) Международный опыт ведения стратегического управленческого учета и возможности его применения в рисовой отрасли //Экономическое развитие и анализ. – Т. 2. – №. 10. – С. 398-405.

Пардаевич Қ. Б. (2023) Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises* //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – Т. 13. – №. 7. – С. 42-49.

Пласкова Н. С. (2018) Развитие методологии экономического анализа в цифровой экономике //Учет. Анализ. Аудит. – Т. 5. – №. 2. – С. 36-43.

Сальников С. Г., Тухина Н. Ю. (2018) Системы информационного обеспечения в АПК: анализ разработок и внедрений //Вестник МГЭИ (on line). – №. 2. – С. 30-37.

Скобара В. В., Подкопаев В. В. (2014) Анализ производственного потенциала предприятий //Ученые записки Российской академии предпринимательства. – №. 41. – С. 279-289.

Тожибоева Ш., Махкамбоев К., Ташпулатова Г. (2021) Иқтисодий салоҳиятнинг айланма маблағлар билан боғлиқ кўрсаткичлари таҳлили //Iqtisodiyot va ta'lim. – №. 5. – С. 205-210.

Умаров И. Ю. (2018) Ўзбекистон Республикасида озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш салоҳияти //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – Т. 6. – С. 1-8.

Шаниязова З. (2023) Қишлоқ хўжалиги корхоналарини давлат томонидан молиялаштиришда замонавий усулларни қўллаш методологияси //Страховой рынок Узбекистана. – Т. 1. – №. 3. – С. 23-25.

Юсов В. С., Блинов О. А. (2013) Применение кластерного анализа для оценки экономических показателей сельскохозяйственных предприятий //Вестник Омского государственного аграрного университета. – №. 2 (10). – С. 82-84.